

TALABALARDA MULOQOT MADANIYATING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Muxamedova Dilbar Gafurdjanovna

O'zMU, "Psixologiya" kafedrası mudiri,

Psixol.f.d.prof.

Sayitova Nargiza Xikmatillo qizi

O'zMU, amaliy psixologiya talabasi

Muloqot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish ma'naviy yuksalish maqsadida bo'lgan kishining xohishiga bog'liq bo'lib, tashqi emas, insonning ichki jarayoni bo'lib o'rtaga tushadi. O'z navbatida, ma'naviy darajani yuksaltirish, madaniyatni mukammallashtirish, zamonaviy hayotning moddiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlash, ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarning devolvasiyasida o'z aksini topgan salbiy ko'rinishlarni bartaraf qilishda, jamoat ishlariga qiziqishning so'nishi, ma'naviyatsizlik va skeptitsizm holatlarini oldini olish barkamol shaxsni tarbiyalashning zaruriy shartlaridan hisoblanadi

L.A. Petrovskiy muloqot madaniyatini rivojlantirish muammosini bir butun yaxlit shaxsiy ta'limot sifatida ta'riflaydi va unda ta'lim oluvchining rivojlanishi muloqot madaniyatining subekti sifatida ta'minlangan bo'lib, bunda ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy, kommunikativ funksiyalar integratsiyalashgan deb urg'u beriladi. Muallifning fikricha, bundan tashqari, mazkur fenomen ma'naviy-axloqiy, estetik va birinchi navbatda, shaxsning ma'naviy madaniyati bilan chambarchas bog'liqlikda shakllanadi. U umumiy madaniyatning muhim komponenti, shaxsning ijtimoiy rivojlanishining, muloqot madaniyati subektining quroli, kommunikativ faoliyatining sirtqi natijasi hisoblanadi[1]. Bu integrativ shaxsiy ta'lim bo'lib, o'z ichiga muloqot me'yorlari etiketini, insonning kommunikativ xususiyatlari va ko'nikmalarining axloqiy yo'nalishga asoslangan tizimini o'z ichiga oladi va u uchun shaxsiy mazmunga ega bo'lib, shaxsning boshqa odamlar bilan kommunikatsiyasining muomala va yurish-turish sohasini tartibga soladi.

A.F. Kurinnayaning qayd etishisha, bugungi kunda talabalarning ta'lim olishida e'tibor, asosan, bilimlar va metodlarni egallashga qaratilgan, ammo insoniy

munosabatlar, o'zaro kasbiy faoliyat sirlarini egallashga yetarlicha diqqat-e'tibor berilmayapti. Amaliyotda har qanday zamonaviy mutaxassisning hayot yo'lida uning samaradorligining asosiy muhim omili odamlar bilan ishlay olish mahorati belgilangan[3]. Muloqot sohasining shakllanish va rivojlanish jarayonining o'zi kompleks xususiyatga ega bo'lishi lozim, chunki bu boshqa kasbiy fanlar bilan interasiyani yaqinlashtirishga imkon beradi.

I.G. Shilkina o'z fikrini quyidagicha bayon etadi, ta'lim oluvchining shaxsiy rivojlanganlik darajasining ko'rsatkichi bo'lib, uning shaxsiy madaniyatining rivojlanganlik darajasi tushuniladi va bundan maqsad shaxsning kasbiy va malakaviy yuksalishi hisoblandi. Bunda, madaniyatning rivojlanishi nomlari qayd etilgan xususiyatlar bilan kifoyalaniq qolmaydi, ammo ular kasbiy tayyorgarlik sharoitida tizim yaratuvchi omil vazifasini bajaruvchi asosiy belgi (dominanta) bo'lib hisoblandi. Tadqiqotchi ishonadiki, ma'naviy ehtiyoqlar va ularni amalga oshirishga qaratilgan faoliyat, madaniy makonni (maydonni) tizimlashtiradi, bu esa o'z navbatida, doimiy ravishda kengayib boradi[2], shu bilan bir qatorda shaxsiy yuksalish imkoniyatini amalga oshirishga va ma'naviy dunyoqarash yo'nalishlarini to'g'ri tanlashga yordam beradi.

Yuqorida qayd etilgan malumotlarni hisobga olgan holda ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik quyidagilar[2]ni o'z ichiga olishi kerak:

muloqotning mohiyati va o'zaro hamkorlik, tushunish va o'zaro bir-birini tushunish, jamoa shakllanishining qonunlari va undagi o'zaro munosabatlar, hamkorlik faoliyati va uni tartibga solish mexanizmlari borasidagi zamonaviy psixologiyaning nazariy qoidalari va boshqalar haqidagi bilimlarga ega bo'lish;

real sodir bo'layotgan o'sha ijtimoiy-psixologik jarayonlarni guruh a'zolari tomonidan anglanishi, hamda bu jarayonlarda o'zining ishtirokini (rolini) baholash;

olingan bilimlar asosida bu jarayonlarni ongli ravishda tartibga solish, boshqarishda ishtirok etish;

shakllangan bilim, malakalarni mukammallashtirish va olingan bilimlarni amalda sinab ko'rish kabi omillar inobatga olingan.

E.E. Shernova tomonidan o'tkazilgan ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, strategiyalarni loyihalashtirishda va umuman shaxsning kommunikativ tayyorgarligining aniq shakllarini rivojlantirish tizimiga, shuningdek uning turli komponentlarini rivojlantirishga turli yondashuvlar mavjud[4]. Bu yondashuvlarning

ko'p qismi bo'lg'usi mutaxassislar bilan maxsus kurslarni, seminarlarni, praktikumlarni, treninglarni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan o'quv ishlari jarayonlariga tegishli bo'lib, bunda ta'lim oluvchilarda ma'lum xususiyat va malakalarni shakllantirishga maqsadli ta'sir ko'rsatish amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, samarali shaxslararo sharoitlarni, jamoadagi hamkorlik va dialogik muhitni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Real o'quv jarayonida ularni hisobga olish muloqotning asosiy vazifasini – kasb egasining shaxsini muloqot, hamkorlik va dialogik muhit sharoitida samarali shakllanishiga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Петровская Л.А. Диагностика и развитие коммуникативной культуры. Киров, 2001. - 112 с.
2. Шилкина И.Г. Развитие коммуникативных особенностей у будущих педагогов. - Нижний Новгород: Волжский ГИПУ, 2005. - 98 с.
3. Куринная А.Ф. Психолого-педагогические аспекты формирования коммуникативных умений и навыков/ А.Ф. Куринная// Педагогика и психология формирования творческой личности. - Киев: Образование, Олимп. - 2002. - С. 206-211.
4. Karamatovna M.A. (2024). Important Aspects of Improving Students' Communicative Competence Today. *Miasto Przyszłości*, 55, 237–243.